

So'nggi yillarda mamlakatimizda elektron mehnat shartnomalarini rasmiylashtirish tizimi yanada rivojlandi va yangi huquqiy asosga ega bo'ldi. Xususan, 2023-yildagi Mehnat kodeksining yangi tahriri mehnat shartnomalarini elektron shaklda tuzishga qonuniy yo'l ochdi. Natijada elektron mehnat shartnomalari an'anaviy yozma hujjatlar bilan teng yuridik kuchga ega bo'ldi.

ZAMONAVIY YONDASHUV



Yagona milliy mehnat tizimi

Elektron mehnat daftarchalari va elektron mehnat shartnomalari

Tizimga kirish →

Tez tez beriladigan savolalar →

Xodimlarning mehnat huquqlarini yanada ishonchli himoya qilish hamda ularning mehnat tajini to'g'ri yuritishni ta'minlash maqsadida 2019-yil 31-oktabrda Prezident qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, "Yagona milliy mehnat tizimi" (YMMT) deb nomlangan idoralararo dasturiy-apparat kompleksi joriy etildi. Ushbu tizim orqa-

li xodimlarning mehnat faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar yagona elektron bazada yuritilishi yo'lga qo'yildi. YMMT Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tarkibida tashkil etilgan maxsus Direksiya tomonidan boshqariladi.

Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Hukumat tomonidan 2019-yil 5-dekabrda "Yagona milliy mehnat tizimi"

idoralararo dasturiy-apparat kompleksida elektron mehnat shartnomalarini tuzish va ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek, elektron mehnat daftarchalarini shakllantirish va yuritish tartibini belgilovchi Nizom tasdiqlandi. Ushbu normativ hujjat YMMT doirasida ish beruvchi va xodim o'rtasidagi mehnat shartnomalarini elektron shaklda rasmiylashtirish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ilgari qog'oz shaklida tuzilgan shartnomalarni elektron ro'yxatga olish hamda mehnat daftarchalarini elektron tarzda yuritish tartibini belgilab berdi.

Nizomning 3-bandiga muvofiq, 2020-yil 1-yanvardan boshlab yangi mehnat shartnomalarini tuzish, amaldagi shartnomalarga o'zgartirish kiritish va ularni bekor qilish holatlari YMMTda majburiy ro'yxatdan o'tkazilishi belgilandi. Shuningdek, 2020-yil 1-yanvarga qadar tuzilgan amaldagi mehnat shartnomalari 2020-yil 1-sentabrdan kechiktirmasdan YMMTda ro'yxatdan o'tkazilishi shartligi qayd etildi. Mehnat shartnomalarini tizimda ro'yxatdan o'tkazish ish beruvchi tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Ish beruvchi va xodim o'rtasidagi mehnat munosabatlarini elektron ro'yxatdan o'tkazish uchun ish beruvchi YMMT idoralararo dasturiy-apparat kompleksining shaxsiy kabinetiga kirishi lozim. Shaxsiy kabinetga kirish elektron raqamli imzo (ERI) yordamida amalga oshiriladi.

Yuridik jihatdan elektron mehnat shartnomalari qog'oz shaklidagi shart-

nomalar bilan teng huquqiy kuchga ega. An'anaviy shartnomalar qo'l bilan imzolangan bo'lsa, elektron shartnomalar elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi. Elektron hujjatlarining yuridik kuchi "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi va "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonunlar bilan kafolatlangan.

Hukumatning 796-sonli qaroriga muvofiq, 2026-yil 1-yanvardan boshlab YMMT axborot tizimining funksional imkoniyatlari kengaytirildi. Endilikda tizimda fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarni qayd etish, shuningdek, barcha turdagi ta'tillarni majburiy tartibda ro'yxatdan o'tkazish joriy etildi. Avval faqat ijtimoiy ta'tillar hisobga olingan bo'lsa, yangi tartibga muvofiq mehnat ta'tillari, ish haqi saqlanmaydigan hamda ish haqi qisman saqlanadigan ta'tillar ham elektron hisobga olinadi. Bu esa mehnat munosabatlarining nafaqat shartnomaviy, balki boshqa muhim elementlarini ham yagona tizimda aks ettirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, mehnat shartnomalarini raqamli muhitda tuzish va ro'yxatdan o'tkazish mehnat munosabatlarini shaffof, aniq va ishonchli yuritishga xizmat qiladi hamda xodimlar va ish beruvchilar huquqlarini samarali himoya qilishga zamin yaratadi.

Jasur SULTONOV,
Adliya vazirligi huzuridagi
Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga
solish ta'sirini baholash instituti
mas'ul xodimi



DUAL TA'LIM – yoshlarni real mehnat bozoriga tayyorlaydi

Dunyo mehnat bozorida sun'iy intellekt, raqamlashtirish va avtomatlashtirish ta'siri ostida katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Jahon iqtisodiy forumi ma'lumotlariga ko'ra, yaqin besh yil ichida mavjud kasblarning qariyb 30 foizi avtomatlashtiriladi, 50 foizida esa yangi malakalar talab etiladi. Bunday sharoitda ta'lim tizimini mehnat bozori bilan uzviy bog'lanmagan holda rivojlanishi mumkin emas.

Prezident Murojaatnomasida kasblarni rivojlantirish hamda yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish 2026-yil uchun to'rtinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishi ana shu global chaqiriqlarga berilgan strategik javobdir. Yangi arxitekturaning markazida dual ta'lim tizimi turibdi. O'zbekistonda so'nggi uch yil ichida dual ta'lim izchil joriy etilib, bugungi kunda avtomobilsozlik, qurilish, transport, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, IT, turizm, servis hamda "yashil" energetika yo'nalishlarida 70 mingga ortiq yosh ushbu tizim asosida tahsil olmoqda.

Prezident Murojaatnomasida texnikumlarni kasbiy ta'limning asosiy tayanchi sifatida rivojlantirish bo'yicha keng ko'lami islohotlar belgilandi. 2026-yildan boshlab har yili kamida 100 ta texnikum to'liq ta'mirlanib, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalariga mos uskunalar bilan jihozlanadi. Shuningdek, Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy va Koreya kabi davlatlarning ilg'or kasbiy ta'lim dasturlari joriy etilgan texnikumlar soni 100 taga yetkaziladi. Bu bitiruvchilarning nafaqat mahalliy, balki xalqaro mehnat bozorida ham raqobatbardosh bo'lishiga xizmat qiladi.

Yangi tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida "Kasblar shaharchalari" tashkil etilishi ham belgilandi. Ushbu shaharchalar maktab o'quvchilarini qurilish, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, servis, IT va "yashil" energetika kabi zamonaviy kasblarga erta yo'naltirishga xizmat qiladi. Bu yerda o'quvchilar kasblar bilan tanishish, ularni amalda sinab ko'rish hamda ustalar va korxonalar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada yoshlar o'z qiziqishi va qobiliyatiga mos yo'nalishni ongli ravishda tanlaydi.

O'zbekistonda texnikum va oliygohlarda xorijiy tillarni kasbiy fanlar bilan integratsiya qilishga qaratilgan CLIL (Content and Language Integrated Learning) modeli bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ushbu model o'quvchilarga texnika, tibbiyot, servis yoki IT fanlarini bevosita ingliz yoki boshqa xorijiy tillarda o'rganish imkonini beradi. Masalan, turizm texnikumlarida o'quvchilar mehmonlar bilan muloqot qilish, xizmat ko'rsatish standartlari va hujjatlar bilan ishlashni ingliz tilida amaliyot orqali egallamoqda. IT yo'nalishidagi talabalarga esa dasturlash hujjatlarini va xalqaro loyiha topshiriqlari ingliz tilida



berilib, ular real ish muhiti bilan tanishtirilmoqda. Tibbiyot texnikumlarida "Pearson" dasturlari asosida hamshiralar kasbiy terminologiyani ingliz tilida o'rganib, xalqaro protokollar bilan ishlashni amaliyotda o'zlashtirmoqda.

Davlat tomonidan ish beruvchilarni dual ta'lim jarayoniga faol jalb qilish uchun rag'batlantirish mexanizmlari joriy etildi. Dual ta'limni samarali tashkil qilgan korxonalar 7 yilga 5 milliard so'mgacha imtiyozli kredit, tadbirkorlik reytingida qo'shimcha ball hamda texnikum o'quvchilarini ishga olganlik uchun 1 foizlik ijtimoiy soliq imtiyozini berilmoqda. Shuningdek, 2026-yildan boshlab texnikumlarda tahsil olayotgan 100 ming o'quvchiga davlat stipendiyalari, a'lo o'qiyotganlarga esa oshirilgan stipendiyalar joriy etilishi yoshlarning kasbiy ta'limga qiziqishini yanada oshiradi.

Dual ta'lim tizimi O'zbekistonda kasbiy tayyorlikni xorijiy tillar, raqamli savodxonlik va fanlararo integratsiya bilan uyg'unlashtirgan zamonaviy ta'lim modeliga aylanmoqda. Bu model yoshlarni real mehnat bozoriga tayyorlaydi va ularning global miqyosda raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Noila MUSTAFOYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti